

O'LMAS UMARBEKOVNING "ODAM BO'LISH QIYIN" ASARIDA GULCHEHRA VA ABDULLA OBRAZLARINING TAQDIRI TALQINI

Islamov Fazliddin

Isomiddinovich

Chirchiq davlat pedagogika universteti

Gumanitar fanlar fakulteti

o'zbek tili va adabiyoti

yo'nalishi 4-bosqich talabasi

islamovfazliddin7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Odam bo'lish qiyin" romani va unga tanlangan nom xususida fikr yuritiladi. Asarga asosiy qahramonlar sifatida tanlangan Abdulla va Gulchehra obrazlarining taqdiri orqali yozuvchi ifodalamoqchi bo'lgan g'oyalar qisman aks ettiriladi.

Kalit so'zlar: Gulchehra, Abdulla, Mingbuloq, syujet elementlari, obraz, insoniy tuyg'ular.

KIRISH.

"Odam bo'lish qiyin" - O'zbekiston xalq yozuvchisi O'lmas Umarbekovning qalamiga mansub. Ushbu asar uning ilk romani, 1969-yilda yozilgan. Ijodkor bu romanida hayot, hayotning haqiqatga to'la nafasi ufurib turadi. Asar tilining soddaligi, voqealarining jonliligi e'tiborga loyiq. O'tgan asrning ikinchi yarmidagi o'zbek nasri rivojida O'lmas Umarbekovning o'ziga xos o'rni bor. Uning bu romanı yoshlar hayoti, ma'naviy-axloqiy muammolar, insonlarning murakkab munosabatlari haqida yoritilgan va bugungi kunda ham ko'p o'qiladigan asarlar sirasiga kiradi. Asarda ilgari surilgan asosiy g'oya bu muhabbatdek buyuk tuyg'uga bo'lgan sadoqatini hamma ham

asrab qola olmasligi, dunyoning yolg‘onchi tuyg‘ulariga aldanib qolmaslik, nafsga hech qachon bosh egmaslik kabi tushunchalarni kitobxonga tushuntirish g‘oyasi bor. Asar sarlavhasining tanlanishi yozuvchining nechog‘lik mahoratli ekanligi ko‘rsatib bergen. Asarga juda ham mos nom qo‘yilgan. “Odam bo‘lish qiyin” kitobxonning diqqatini tortishi aniq. Chunki hamma ham bu dunyoda insoniylik nomini saqlab qolishga harakat qiladi. Asarda qanday yo‘ldan borilsa, shu nomni saqlab qolsa bo‘ladi degan savolga javob topamiz. Shuning uchun shu sarlavha qo‘yilgan.

ASOSIY QISM.

Asar. Shu birgina so‘z o‘z zamirida qanchadan qancha insonlar taqdirini qamrab olgan. Undagi voqealar rivoji go‘yoki umr elagi. Lahzalar esa hayot ko‘prigidir. Undan faqatgina sabrli matonatlari insonlar o‘ta oladi. Buning dalili sifatida O‘lmas Umarbekovning "Odam bo‘lish qiyin" romanini o‘qib yana bir bor amin bo‘ldim. Nahotki inson haqiqiy muhabbati o‘z atrofida ekanligini bilmay uni olislardan izlasa. Gulchehraning pinhona nigohlari ostida erkabalab sevib, asrab kelayotgan Samadda nima gunoh ediki, sevgisi yetim bo‘lib qoldi. Gulchehra-chi Gulchexra shunchalar zaif edimiki, go‘yo sevgining otasi va qom-u qarindoshlari g‘ururini hattoki yaqinda qabrga qo‘yilgan hali tuprog‘i sovib ulgurmagan onasining xotirasini toptashga yo‘l qo‘yib berdi. Hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Ijodkor bu sevgini nega Mingbuloqda voqealashtirdi? Fikrimcha, asarda ko‘p, juda ham ko‘p majoziy tasvir yotibdi. Mingbuloqda tug‘ilgan bu sevgi Gulchexraning ko‘p qavatli mehmonxonadan tushib ketishi bilan ming bo‘lakka bo‘lingan edi go‘yo. Endi o‘ylab ko‘ring! Shu birgina joy otashin bir sevgi qanday yakun topishini o‘z bag‘rida zabonsiz saqlamagan ekanmi? Nega u mudhish hodisa aynan "Yoshlik" mehmonxonasida, o‘zi proyektini loyihalashtirgan joyda sodir bo‘lyapti. Yoshlik... qiziq. Bu tuyg‘uning sodda va samimiyligi qizning hayotiga nuqta qo‘yilishi yoshlik davrida kechishiga ishora qilmayaptimikin? Odam bo‘lish qiyin. Shunchalar qiyin ekanki, asardagi birgina Abdulla obrazi buni isbotlab bergen. U avvallari mehribon, oqko‘ngil, shafqatli inson emasmidiki, tog’asi Obid o‘zining maftunkor ovozi bilan jalb qilgan bedananing joniga

qasd qilayotganda qarshilik qilishga urungan edi. Nima uning bu darajada xudbin bo'lishiga olib keldi? Balki manfaatdir, balki professor Tursun akaning uni Leningradga olib ketish istagidir. Ehtimol, balki shundaydir. Asarda yillar davomida tarbiyalanib kelayotgan hattoki yaqinlari ham buni sezmagan bir insonning xudbin, razil qiyofasi namoyon etilgan. Asarni o'qib tugatib o'ylab qoldim: Insonda ham yurak ko'p bo'lar ekan-da? Yurak ham beqaror bo'lar ekan-da? Inson sevgan insonidan ham nafratlanishi uni yomon ko'rishi mumkinmi? Nega Abdulla Gulchehraning xatlariga beparvo va nafrat bilan qaradi. Hattoki javob ham yozmay qo'ydi. U Sayyorani kelajagimni ta'minlaydi deya manfaat ila sevgan edi. Balki, sevmagandir ham. Shu manfaatli sevgisini bir qizning samimi muhabbatidan ustun qo'ydi. Oyoqlari bilan ilk muhabbatini yanchib tashladi. U otasi G'ofurjona aka va onasi Shahodat opaning sevilariga nazar solsa bo'lar edi. Ammo u parvo qilmadi. Ularning uyida tayinli jihoz, buyum hattoki ortiqcha pullari bo'lmasa ham bir-biriga bo'lgan sadoqatli muhabbat hukm surar edi. Bir onadan alvon bola tug'iladi deganlari shu bo'lsa kerak. Ha amin bo'ldim. Asardagi tugun ilk tugun ikki yoshning ancha yillar o'tib bir-birini nogoh ko'rib qolishi bilan boshlanadi. Asarda bir necha voqeaga bir necha tugunlarni misol qilib keltirish mumkin. Masalan, Abdullaning Gulchehra haqidagi tuyg'ulariga orzularining to'siq bo'lishi uning o'z ichki olamidagi tugun hisoblanadi. Yoki Gulchehra va Abdullaning hayotida kutilmaganda Sayyora va uning otasi paydo bo'lishi ham asardagi bitta tugundir.

1. Asarda juda ko'p konfliktlar uchraydi. Masalan, Gulchehraning tashqi va ichki olamida shaharga ketish yoki qishloqda qolish borasidagi qarama-qarshilik yoki Abdullaning Sayyora va obro'-e'tibor yoki Gulchehraga nisbatan samimi tuyg'ulari qarama-qarshiligi konfliktni yuzaga keltiradi. Inson va tabiat o'rtasidagi konflikt Abdullaning poyezddagi holatida aks etadi. Go'yo Abdulla xursand: yettinchi osmonda uchadi-yu, tabiat uni so'ngsiz kulfatlardan ogohlantiryotganday jim-jit, qo'rinchli.

2. Asardagi kulminatsiya Gulchehraning o'limi... Va buning ortida Abdullaning vijdon azobi... U bu o'limda o'zini va o'tkinchi orzu-havaslarini ayblaydi.

3. Asardagi yechim Abdulla poyezd yo‘lida o‘tirganida ikki er-xotinning urushib qolgani va er xotinini qay darajada yaxshi ko‘rishini hikoya qilib berish jarayonida yuzaga chiqadi, ya’ni Abdulla aytadiki:" Sevgan insoningizni borida qadrlang, hech qachon xafa qilmang. Dunyodagi eng sizni quvontiradigan narsa ham uning kulgusini oldida bir chaqaga ham arzimaydi"

4. Asarda kompozitsiya unsurlaridan shakl va mazmun, syujet elementlari, epilog, konflikt, yechim kabilar ifodalananadi.

5. Asarning boshidayoq folklor na’munasi uchraydi, ya’ni asar rivoyat bilan boshlanadi. Bundan tashqari turli xil maqollar, hikmatli so’zlar uchraydi.

Asardagi rivoyat ham menga juda yoqdi. Unda bir Muslim podshoning fir’avni otasi bo‘lishi va qancha ogohlantirilmasin, undan voz kechmaydi. Kun kelib u fir’avn bo‘ladi va o‘z otasini o‘ldiradi, lekin bashoratga ko‘ra keyingi umrini ma’nosiz o‘tkazadi. Asarda yana qo‘sinq na’munasi ham uchraydi. Asardagi har bir obraz o‘zining betakror vazifasini bajargan : Hajar buvi, G’ofurjon aka , Sayyora, Obid aka, Tursin aka, Shahodat aya... Odam bo‘lish qiyin. Nazarimda ushbu obrazlar ichida G’ofurjon aka shu jumlaning har bitta tovushlarini odamiylik, muruvvatpeshalik, kechirimlilik, mehribonlik kabi xususiyati ila eritayotgandek. Ammo bu xislatlar o‘g‘li Abdullada mavjud emas. Shunday ekan bu jumla uning hayotining bosh sarlavhasi bo‘lgan desam mubolag‘a bo‘lmaydi. U olim bo‘lish ortidan yugurib, odamiylik tuyg‘ularini unutib qo‘ygan bir inson sifatida tasvirlangan. Asar so‘ngini o‘qishga Juda ham qiyaldim. Ko‘zlarimda yosh qalqidi. Ovozim bo‘g‘ilib qoldi. Asardagi rivoyat meni Juda ham hayratga soldi. Asardagi bu rivoyat menga juda yoqdi. Unda bir Muslim podshoning o‘g‘li fir’avn bo‘lishi va qancha ogohlantirilmasin, undan voz kechmaydi. Kun kelib u fir’avn bo‘ladi va o‘z otasini o‘ldiradi, lekin bashoratga ko‘ra keyingi umrini ma’nosiz o‘tkazadi. Ijodkorimizning bu asari biz yoshlarga saboq desam adashmagan bo‘laman. Asar mazmunidan: Bu hissiyot changalidan iloji boricha sabr, matonat va mushohada bilan o‘tish kerak degan xulosa chiqadi. Sujet keng. Voqealar rivoji ziddiyatli. Prelogni boshlaganimdagi ruhiy holatim epilogni tugatgunimga qadar

turfa xil o'zgarishlarga uchradi. Yozuvchimiz O'lmas Umarbekovning mahoratiga tasannolar bo'lsin! Bizlarga shunday oltinga teng hikmat xazinasini meros qilib ketganliklari uchun. Ruhlari shod bo'lsin.

Kattalarimizda shunday gap ko'p uchraydi: "Hamma ham odam bo'lib tug'iladi. Eng muhimi o'sha nomga munosib bo'lishdadir".

XULOSA. O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" romani ham xuddi shu tuyg'uni yoritib bergan inson qismatining yorqin na'munasidir. Asarda odamiylik multkiga dog' qo'ndirmay asrab yurish nechog'lik qiyin va mas'uliyatli ekanligini yoritib beradi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'lmas Umarbekov Odam bo'lish qiyin. "Sharq" nashriyoti. -T.: 2007
2. <https://hozir.org/badiiy-asar-tahlili-v>
3. https://www.wikiwand.com/uz/articles/odam_bo%27lish_qiyin